

---

## TASHABBUSLI BYUDJET 2-MAVSUMI G'OLIBLARI E'LON QILINDI: SO'X TUMANIDAN 3 TA MAHALLADAN QO'YILGAN LOYIHALAR G'OLIB DEB TOPILDI

---

### **Tashabbusli byudjet 2-mavsumi g'oliblari e'lon qilindi: So'x tumanidan 3 ta mahalladan qo'yilgan loyihalar g'olib deb topildi**

«Tashabbusli byudjet» loyihasining 2023 yildagi 2-mavsumiga ovoz berish 16 sentyabrda yakunlandi. Jami 1 187 ta loyiha g'olib deb topildi va ularni amalga oshirish uchun 1,4 trln so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltiriladi. G'olib bo'lgan hududlarda yashovchilar g'alabani bayram bilan nishonlashmoqda.

G'oliblar ro'yxati "Openbudget.uz" saytida [e'lon qilindi](#).

Qayd etilishicha, "Openbudget.uz" portalı orqali 33 489 ta tashabbus uchun 16, 2 million ovoz berilgan.

Mazkur portal orqali So'x tumanidan 57 ta loyiha ro'yixatga olingan va ushbu tashabbuslar g'oliblik uchun ishtirok etib kurash olib bordi. Natijada 3 ta tashabbus g'olib deb topildi va loyihalar moliyalashtirilgandan so'ng ushbu tashabbuslarning ijrosi uchun ishlar boshlab yuboriladi.

#### **So'x tumanidan g'olib bo'lgan loyihalar:**

Maktabgacha ta'llim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari bo'limidan joy olgan "So'x tuman 3-sonli MTM-ni joriy ta'mirlash hamda quyosh panellari o'rnatish" loyihasi. Jami ovozlar soni - 3 520 ta.

Yo'naltiriladigan mablag' miqdori - 1 320 000 000 so'm.

Umumta'llim maktabalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari bo'limidan joy olgan "So'x tuman Saribozorcha MFY-da joylashgan 29-sonli maktabiga yozgi sport maydonchasi, sportzalini rekonstrutsiya qilish hamda 10 kilovatli gibridd quyosh panellari o'rnatish" loyihasi. Jami to'plagan ovozlar soni - 3 177 ta.

Tasdiqlangan mablag' miqdori - 700 000 000 so'm.

Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari bo'limidagi "So'x tuman Yangiariq MFYda joylashgan tibbiy xizmat uyini joriy ta'mirlash va quyosh panellari o'rnatish" loyihasi. Jami to'plagan ovozlar soni - 2 262 ta.

Tasdiqlangan mablag' miqdori - 1 320 000 000 so'm.

Barcha g'olib bo'lgan loyihalar va mahallalarni ushbu zafar bilan tabriklaymiz va kelgusidagi tashabbuslar ham g'olib bo'lishiga niyat bildiramiz.

#### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

[\*\*BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA KUZATING\*\*](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-16 17:38:58